



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 5-iyun

190-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimiligi

“Nurafshon biznes siti” hududida “Tibbiy chaqiruv punkti” (Call sentr) obyektini qurish xarajatlari uchun mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyundagi 283-sonli qarori bilan belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 4-iyundagi VII-14-72-10-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, “Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi biznes markazlarini qurish Direksiyasi” DUKning 2025-yil 2-maydagi 05/155-sonli xati, viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Mahmudovning bildirgisini inobatga olib “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Viloyat mahalliy byudjetining 2025-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan “Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi biznes markazlarini qurish direksiyasi” DUKga “Nurafshon biznes siti” hududida “Tibbiy chaqiruv punkti” (Call sentr) obyektini qurish xarajatlari uchun 20,0 mlrd. (yigirma milliard) so‘m mablag‘ ajratilsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Xashimov) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Viloyat g‘aznachilik boshqarmasi (M.Zaripov) ajratilgan mablag‘ bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. “Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi biznes markazlarini qurish direksiyasi” DUK (E.Mirxoliqov) ajratilgan mablag‘ni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

5. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O.Odilov) ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

6. Mazkur farmoyish ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov va viloyat hokimi o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev